


X. O'RTACHA OYLIK NOMINAL HISOBLANGAN ISH HAQI

Samarqand viloyati bo'yicha o'rtacha oylik ish haqi 2022- yilning yanvar-dekabr oylarida 2 944,2 ming so'mni tashkil etdi va buni hududlar bo'yicha ko'radigan bo'lsak, o'rtacha oylik ish haqining yuqori miqdori Samarqand shahrida 3 765,4 ming so'mni viloyatdagi o'rtacha oylik ish haqiga nisbatan 127,9 % ni tashkil etgan.

Boshqa hududlarga nisbatan past ko'rsatkich Payariq tumanida 2 279,0 ming so'mni (77,4 %), Qo'shrabot tumanida 2 286,7 ming so'mni (77,7 %) Bulung'ur tumanida 2 298,0 ming so'mni (78,1 %), Kattaqo'rg'on tumanida 2 338,3 ming so'mni (79,4 %) tashkil etib, shahardagi o'rtacha ish haqiga nisbatan kam miqdorga ega bo'lmoqda.

Hududlar bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi, viloyatdagi o'rtacha oylik ish haqiga nisbatan (qishloq xo'jaligi va kichik tadbirkorlik subyektlarisiz, % da)




O‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi*
(qishloq xo‘jaligi va kichik tadbirkorlik subyektlaridan tashqari, ming so‘m)


	2021- yil yanvar-dekabr	2022- yil yanvar-dekabr	2021- yilga nisbatan, % da
Samarqand viloyati	2 418,6	2 944,2	121,7
Samarqand sh.	3 148,6	3 765,4	119,6
Kattaqo‘rg‘on sh.	2 175,5	2777,3	127,7
tumanlar:			
Oqdaryo	1 938,0	2 381,9	122,9
Bulung‘ur	2 018,1	2 298,0	113,9
Jomboy	2 439,7	2 687,2	110,1
Ishtixon	1 922,6	2 435,2	126,7
Kattaqo‘rg‘on	1 925,2	2 338,3	121,4
Qo‘shrabot	1 910,9	2 286,7	119,7
Narpay	2 234,9	2 631,6	117,7
Payariq	2 016,9	2 279,0	113,0
Pastdarg‘om	2 021,5	2 343,5	115,9
Paxtachi	1 879,1	2 368,5	126,0
Samarqand	2 232,2	3 742,3	167,6
Nurobod	2 172,1	2 732,3	125,8
Urgut	2 156,5	2 433,1	112,8
Toyloq	1 830,9	2 686,1	146,7

2022- yil yanvar-dekabr oylarida Samarqand viloyatining shahar va tumanlari bo‘yicha o‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi 2021- yilning mos davriga nisbatan 121,7 foizga oshgani holda, o‘rtacha oylik ish haqining eng yuqori sur‘atlari Samarqand tumanida 167,6 foiz, Toyloq tumanida 146,7 foiz, Ishtixon tumanida 126,7 foiz, Paxtachi tumanida 126,0 foiz, Kattaqo‘rg‘on shahrida 127,7 foizga o‘sgani kuzatildi.

Hududlar bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi
(O'tgan yilning mos davriga nisbatan, % da)



Hududlar bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi
(2022- yil yanvar-dekabr holatiga, viloyatga nisbatan, % da)



Sanoatda o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi miqdori 3 342,7 ming so'mga to'g'ri keldi va 2021- yilning mos davriga nisbatan 14,2 % ga ko'paygan.



Qurilish sohasida o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi miqdori 3 489,4 ming so'mga to'g'ri keldi va 2021- yilning mos davriga nisbatan 15,9 % ga ko'paygan.

Savdo sohasida o'rtacha nominal hisoblangan ish haqi miqdori 2 009,5 ming so'mni tashkil qildi va 2021- yilning mos davriga nisbatan 8,7% ga oshdi.



Tashish va saqlashda o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi miqdori 3 299,7 ming so'mni tashkil qildi va 2021- yilning mos davriga nisbatan 42,9 % ga oshdi.

Axborot va aloqa sohasida o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi miqdori 4 849,3 ming so'mga to'g'ri keldi va 2021- yilning mos davriga nisbatan 41,0 % ga oshdi.





Moliya va sug'urta faoliyati sohasida o'rtacha nominal hisoblangan ish haqi miqdori 6 962,2 ming so'mni tashkil qildi va 2021- yilning mos davriga nisbatan 14,9 % ga oshdi.

Ta'lim sohasida o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi miqdori 2 558,2 ming so'mni tashkil qildi va 2021- yilning mos davriga nisbatan 17,6 % ga oshdi.



Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar sohasidagi o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi miqdori 2 802,6 ming so'mga to'g'ri keldi va 2021- yilning mos davriga nisbatan 37,7 % ga oshdi.

Boshqa faoliyat turlari sohasidagi o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi miqdori 3 540,2 ming so'mga to'g'ri keldi va 2021- yilning mos davriga nisbatan 30,2 % ga oshdi.



O‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi
(yanvar-dekabr, ming so‘mda)

